

**SURXONDARYO VILOYATI TEZ TIBBIY YORDAM XIZMATIDA  
FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN FEL'DSHERLAR ISHINING SIFATI VA  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**Erdanaev Ruziboy Xolmuxamadovich**

TTA Termiz filiali<sup>2</sup>-son Davolash fakulteti

o'quv ishari bo'yicha dekan o'rinbosari

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati tez tibbiy yordam xizmatida faoliyat ko'rsatayotgan fel'dsherlar ishining sifati va samaradorligini oshirish mavzusining bugungi kundagi ahamiyati va dolzarbligi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, Surxondaryo viloyati tez tibbiy yordam xizmatida faoliyat ko'rsatayotgan fel'dsherlar ishining sifatini oshirishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar to'liq yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** *Tez tibbiy yordam, fel'dsher, sifat, samaradorlik, faoliyat, shoshilinch maslahat, tibbiyot.*

Surxondaryo viloyati tez tibbiy yordam markazida mashinalar harakati sun'iy yo'ldosh orqali monitoring qilib boriladi "103" xizmati faoliyatini takomillashtirish, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlash borasidagi ijobiy o'zgarishlar yurtimizda aholiga xalqaro andozalarga mos tarzda tez tibbiy yordam ko'rsatish imkonini bermoqda. Birgina misol. Bugungi kunda "Surxondaryo viloyati tez tibbiy yordam markazi"da bitta chaqiriqqa dori-darmon uchun ajratilayotgan mablag' 15 barobardan ziyodga ortib, o'rtacha 7500 so'mni tashkil qilmoqda. Vaholanki, bu mablag' 2016-yil o'rtacha 500 so'm edi. Shuningdek, bundan 7 yil avval yurtimizda atigi 48 ta "Tez yordam" shoxobchasi faoliyat yuritgan bo'lsa, ayni paytda ular soni taga yetdi. Qolaversa, bugunga kelib, "103" brigadalari jami 202 tani tashkil qilmoqda. Vaholanki, bu raqam ham 2016-yilda 94 ta edi. Yana bir gap. Bundan 6-7 yil avval yurtimiz tez tibbiy yordam tizimida 73 ta avtomashina bor edi. Bugun esa 204 ta avtomobil aholiga sifatli xizmat ko'rsatyapti. Shuningdek, maxsus avtomashinalar parki 60-70 foizga yangilandi. Foydalanilayotganiga 8 yildan oshgan avtotransport vositalarini zamonaviylariga almashtirish ishlari esa bosqichma-bosqich davom ettirilyapti. Qolaversa, 7 yilda "Tez yordam"da reanimobillar soni 2 tadan 19 taga ko'paydi. Jumladan, joriy yil Respublika tez tibbiy yordam markazi "Jizzakh Auto" tomonidan ishlab chiqarilgan 10 ta "Volkswagen Caddy" mashinalari bilan bilan

boyidi. Bundan tashqari, oxirgi yillarda "103" brigadalari dislokatsiyasi qayta ko'rib chiqilib, aholi yashash punktlariga yaqinlashtirildi. Natijada o'tgan 6 yil davomida xizmat ko'rsatish radiusi o'rtacha 40-45 kilometrdan 12-15 kilometr ga qisqardi. "103" raqami markazlashtirilishi hamda muvofiqlashtiruvchi dispetcherlik xizmati — "Call markaz»lar tashkil etilishi orqali esa "Tez yordam"ning kechikishi 40 foizdan 20 foizgacha kamaydi. Eng muhimi, sohadagi islohotlar 2023-yilda ham izchil davom ettiriladi. Jumladan, tizimdagi eskirgan avtoulavlarni bosqichma-bosqich zamonaviylariga almashtirish choralari ko'riladi. Unga ko'ra: Aholiga yanada sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish maqsadida "Tez yordam" uchun yana 1000 dona A toifali zamonaviy avtomashina xarid qilinishi ko'zda tutilgan. Ushbu maqsadda Osiyo taraqqiyot banki loyihasi asosida kredit mablag'lari ajratilgan. Bu orqali tizimdagi "Damas" avtomobillari to'liq yangilanadi. Shuningdek, olis va chekka hududlar, tog'li va cho'l mintaqalarida ushbu sohani rivojlantirish, tizim xodimlarining xizmat ko'rsatish imkoniyatini oshirish maqsadida maxsus yo'l tanlamas avtomobillar olib kelinadi. Yana bir yangilik. Joriy yil "103" xizmatida yagona Call-markaz tashkil qilinadi. Sohada kompleks axborot tizimlarini joriy etish maqsadida ularda yagona intellektual chaqiruv platformasi yaratiladi. Shu bilan birga, xizmat avtotransportlari uchun GPS yordamida sun'iy yo'ldosh monitoringi tizimi yo'lga qo'yilmoqda.

---

**Tez tibbiy va shoshilinch yordam tizimini takomillashtirish bo'yicha dastur ishlab chiqildi bu borada amalga oshirilgan ishlar** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 5-may kuni tez tibbiy va shoshilinch yordam xizmati faoliyatini takomillashtirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Bu sohalar inson sog'lig'i va hayotini saqlab qolishda "oltin soat" oralig'ida birinchi yordam ko'rsatuvchi muhim bo'g'indir. So'nggi besh yilda bu yo'nalishlarning moddiy ta'minoti va kadrlar salohiyatini yaxshilash bo'yicha ko'p ishlar qilindi. Jumladan, 2 ming 224 ta yangi tez yordam mashinalari xarid qilindi, zamonaviy reanimatsiya mashinalari soni 24 tadan 435 taga yetkazildi. Tez yordam stansiyalari va brigadalari soni ham ko'paytirildi. Shuningdek, bitta chaqiriq uchun dori-darmonga ajratilayotgan mablag'lar miqdori 16 baravarga, dori turlari 20 tadan 45 tagacha oshirildi. Shoshilinch yordam sohasida ham quyi bo'g'inga katta e'tibor qaratildi. Hududlarda 21 ta tumanlararo qo'shma shikastlanish va o'tkir qon-tomir kasalliklari markazlari tashkil

etildi. Natijada tuman va shahar aholisini viloyat markazlariga murojaatlarini kamaytirdi. Masalan, ilgari "Qamchiq" dovonida avtohalokatda og'ir tan jarohati olgan bemorlar 100 kilometr masofa bosib, Toshkent va Namangan shahridagi shoshilinch markazlarga olib borilgan. Endi Angren shahri va Pop tumanida ochilgan markazlar odamlar joniga ora kirmoqda. Misol uchun, o'tgan yili tez tibbiy yordam brigadasining kechikib kelishi bo'yicha 50 mingdan ziyod shikoyat kelib tushgan. Buning sabablaridan biri sohada yagona boshqaruv yo'lga qo'yilmaganidir. Jumladan, tez tibbiy yordam xodimini ishga tayinlash, dori-darmon ta'minoti, transport, yoqilg'i va haydovchilar masalasi viloyatdagi turli boshqarmalar vakolatida. Boshqaruvdagi bunday chalkashliklar evaziga tez tibbiy yordam xizmati ko'rsatish tuman hududi bilan cheklangan. Tez yordam stansiyasi qo'shni tuman bilan chegaradosh bo'lsada, boshqa hudud degan vaj bilan chaqiruvni qabul qilmaydi. Tez tibbiy yordam mashinalarining ko'pida navigatsiya jihozlari yo'qligi, 10 mingta ko'chaga haligacha nom va 500 mingga yaqin uylarga raqam qo'yilmagani sababli manzilni topishga ko'p vaqt ketmoqda. Tizimdagi eng katta muammo – shoshilinch yordam bemor uchun eng yaqin tibbiyot muassasasida emas, balki faqatgina oldindan biriktirilgan sanoqli shifoxonalarda ko'rsatiladi. Shu bois tez tibbiy va shoshilinch yordam tizimini takomillashtirish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqilgani ma'lum qilindi. Xususan, joriy yil 1-iyuldan yagona vertikal boshqaruv asosida "103" Respublika tez tibbiy yordam markazi va uning viloyat filiallari tashkil etiladi. Buning natijasida endi tez tibbiy yordam ko'rsatish bir tuman hududida emas, balki Toshkent shahri tajribasi asosida, masofaga qarab butun viloyat bo'yicha yo'lga qo'yiladi. Tumanlarda chaqiruvlarni qabul qilish dispetcherlik xizmati tugatilib, viloyatlarda yagona koll-markaz tuziladi. Koll-markazda operatorlar bilan birga alohida tibbiyot-maslahat brigadasi faoliyat olib boradi. Shuningdek, viloyat koll-markazlariga tez tibbiy yordam xizmati mavjud xususiy klinikalar ham ulanishi mumkin bo'ladi. Bu tajriba dastlab Sirdaryo viloyatida Tibbiy sug'urta jamg'armasi orqali tashkil etiladi va bosqichma-bosqich barcha hududlarga keng joriy etiladi. 2022-2025-yillarda tez tibbiy yordam tizimidagi barcha eskirgan mashinalar zamonaviy avtomobillarga almashtirilishi, natijada chaqiruvlarga yetib borish vaqti 3 barobarga qisqarishi qayd etildi. Bugungi kunda 2 ming 695 ta tez tibbiy yordam brigadasi bo'lib, 500 dan ortig'ida vrach yetishmaydi, shuningdek, 6 mingdan ortiq shifokor o'rindoshlik asosida ishlaydi. Xalqaro tajribaga ko'ra, barcha chaqiruvlarda ham vrachlar bo'lishi shart emas.

Shuning uchun endi chaqiruvlarning murakkabligi, dolzarbligi va turiga qarab, saralash tizimi joriy etiladi. Yana bir masala: bizda tez tibbiy yordam brigadalari vrach, feldsher va haydovchidan tashkil topgan. Xorijiy tajribada tez yordam feldsheri bir vaqtning o'zida haydovchi hisoblanadi. Shu bois yangi o'quv yilidan feldsherlikka o'qiyotgan yoshlar haydovchilikka ham o'rgatilishi belgilandi. Buning uchun tibbiyot kollejlari haydovchilik maktablari birlashtiriladi. Ko'rsatilgan xizmatni bemorlar tomonidan baholash orqali tez tibbiy yordam xodimlarini rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yiladi. Bunda, har chorak yakunida faoliyati bemorlar tomonidan yaxshi baholangan brigadalar xodimlari oylik ish haqining 50 foizi miqdorida mukofotlanadi. Yurtimizda har ming kishiga nisbatan chaqiruvlar soni 352 tani tashkil etadi. Bu rivojlangan davlatlardagiga qaraganda 6-7 baravar ko'p. Chunki qishloq va mahallalarda oddiy tibbiy xizmat yo'lga qo'yilmagani uchun aholi tez yordamga murojaat qilmoqda. Shuning uchun mahallalarda tibbiyot punktlari tashkil etish bo'yicha ko'rsatma berildi. Tez tibbiy yordam tizimi xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirish masalasiga ham e'tibor qaratildi. Buning uchun, Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Respublika shoshilinch tibbiy yordam o'quv-mashg'ulot markazi Respublika tez tibbiy yordam markazi tizimiga o'tkazilib, Xodimlar malakasini oshirish maktabi sifatida qayta tashkil etiladi. Turkiya, Koreya, Fransiya kabi tez yordam tizimi ilg'or bo'lgan mamlakatlardan mutaxassislar jalb qilinadi. Tumanlar darajasida shoshilinch tibbiy xizmat qamrovini kengaytirish zarurligi ta'kidlandi.

**Xulosa va tavsiyalar.** O'zbekistonning cho'l va tog'li, tekislik hududida yashagan aholining o'ziga xos xususiyatlari mavjud, xususan, Surxondaryo viloyati hududidagi tez tibbiy yordam (TTY) ko'rsatish tizimini qiyosiy-ilmiy tahlil qilish viloyat tumanlardagi tez tibbiy yordam xizmatini tashkil qilish aholi soni, zichligi, yashash joylarining tarqoqligi, tez tibbiy yordam xizmatini ulardan uzoqligi, TTY bilan ta'minlanganligi, notekisligi va hududning ayrim geografik xususiyatlariga bog'liq ekanligi aniqlandi. TTY tizimi faoliyatini yanada takomillashtirish, samaradorligini oshirish uchun yuqoridagi omillarga albatta e'tibor qaratish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sog'liqni saqlash sohasi vakillari bilan "Tibbiyotdagi islohotlar — inson qadri uchun" mavzusidagi ochiq muloqoti.
2. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 5-may kuni tez tibbiy va shoshilinch yordam xizmati faoliyatini takomillashtirish masalalari bo'yicha videoselektori.
3. Erdanaev R.X. Training and training of medical procedures (feldshers) in our republic. // Journal for innovative development in pharmaceutical and technical science International Conference on Applied and Natural Sciences. Impact Factor :- 6.011. 2021. P.100.
4. Mo'minov R.D. Viloyat sog'liqni saqlash tizimi misolida tez tibbiy yordam ko'rsatish xizmatini muvofiqlashtirish va tashkil qilish tibbiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. T.: 2012. -B. 153.